

CHET TILI DARSLARDA MOTIVASIYANI OSHIRISHNING AHAMIYATI

Alisher Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Xorijiy tillar kafedrasи o'qituvchisi

Исраилова Дилором Шомахаматовна

dilorom_76@mail.ru +99893/539-26-55

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarni chet tili o'rganishga bolgan motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyatga egaligi haqida gap boradi. Yangicha yondoshib, qiziqarli vazifalar berilishi, talaba erkinligi va ijodiy yondoshuvini ta'minlanishi, dars jarayonida nemischa muhit yaratilishi motivatsiyani oshirishiga ximat qiladi.

Kalit sozlar: talabalar, faollashuv, motivatsiya, qiziqish, til o'rganish, vazifalar,

Annotation

This article talks about the importance of increasing students' motivation to learn a foreign language. A new approach, providing interesting tasks, ensuring the student's freedom and creativity, creating a German atmosphere during the lesson will increase motivation.

Keywords: students, activation, motivation, interest, language learning, tasks,

Аннотация

В данной статье говорится о важности повышения мотивации студентов к изучению иностранного языка. Новый подход, предоставление интересных заданий, обеспечение свободы и творческого подхода ученика, создание немецкой атмосферы в ходе урока повысят мотивацию.

Ключевые слова: студенты, активизация, мотивация, интерес, изучение языка, задания,

Til jamiyat taraqqiyotida katta ahmiyat kasb etadi, chunki til inson iqtidori, salohiyati, qobiliyati va o'zligini namoyon etadi. Mustaqillikka erishgan yillarimizdan beri chet tillarini o'qitish muammolari ustida juda ko'p olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqdalar. Ularning bir qator xulosalari o'rganuvchilarga nafaqat umumiy o'rta ta'llim maktablarida balki oliy o'quv yurtlarida ham o'qitish jarayoninig samaradorligi va sifatini oshirishning ahmiyati katta ekanligini ko'rsatib berdi.

Chet tilini o'rgatishda ko'plab yondashuvlar mavjud, lekin ideal usulni topish qiyin. Ko'p o'qituvchilar talabalar darajasiga mos keladigan eng samarali usullarni tanlashga harakat qiladilar. Bunda aynan motivatsiya muhim o'rinni tutadi. Motivatsiyaga ta'sir qiluvchi omillar ham juda ko'p. Bu shunchaki sodir bo'lmaydi, balki ijtimoiy muhit, o'quvchidagi aniq maqsad, til o'rganishga bo'lgan xohish va g'oyalar ham muhimdir. "O'quvchining yoshi, hissiyotlari, munosabati, til o'rganishga moyilligi, o'rganish uslubi kabi barcha omillar orasida o'quvchining motivatsiyasi chet tilini o'rganishning muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblanadi." [1. DLL 2, 2.4.2] "O'quvchilar albatta o'zlarini o'rganishlari uchun mas'uldirilar." [2.Rimer 2010:1154 -bet]

Motivatsiya nima? Motivatsiya odamlarni biror narsani qilishga yoki qilmaslikka undaydigan kuchni tavsiflaydi. Bu ichki va tashqi motivlar tomonidan qo'zg'atilishi va odamlarni ijobiy narsaga yoki salbiy narsadan uzoqlashtirishga olib kelishi mumkin. [3.]

Motivatsiya nima uchun kerak? Yuqori darajadagi motivatsiya o'z ishidan qoniqish va zavqlanish xissini beradi. Agar motivatsiya bilan ishlansa, sog'liqni ham himoya qilishga erishiladi, yani: depressiya, charchash yoki ortiqcha ishning boshqa belgilari xavfi kamayadi. Motivatsiyalangan xodimlardan kompaniyalar ham foyda ko'radi. O'rganish individual, talabaning o'ziga bog'liq, lekin o'qituvchining o'rganishga qiziqish uyg'otishi orqali bu jarayonni tezlashishi va osonlashtirishiga erishiladi.

O'qituvchi sifatida talabalarni qanday rag'batlantirishim mumkin? O'qituvchilar o'quvchilarni nutq so'zlaganda maqtashlari, ularni gapirishda ancha o'zgarish, oldinga siljish bolganini ta'kidlashlari kerak. Bunda talabalar muvaffaqiyat tuyg'ularini boshdan kechirishlari kerak. Og'zaki nutq faoliyatni tugatgandan so'ng ijobiy fikr bildirish ularni harakatga undaydi.

Talaba gapi rayotganda yaxshi o'qituvchi sinfda tartib, tinchlik va xavfsizlik hissini ta'minlaydi. Talaba nutqini tez-tez buzib, xatosini to'g'irlamay, balki oxirida etib o'tishi kerak. Bu haqida "O'qituvchi o'quvchilarining xatolariga emas, balki muvaffaqiyatga e'tibor qaratishi kerak. Fikr-mulohaza rag'batlantiruvchi va ma'lumot beruvchi bo'lishi kerak" deyilgan fikr xam movjud. [4. Dörnyei 1994:17]

Til darslari muloqotga yordam beruvchi vazifalarni berib borilishi muhim ahamiyatga ega. Nutq motivatsiyasi og'zaki nutqqa katta ta'sir ko'rsatadi. Talabalarning gapirishda xato qilishdan qo'rqliklari og'zaki nutqlarini rivojlanishiga, qobiliyatini namoyish qilishiga to'sqinlik qiladi. Talabalar ko'pincha gapirish qobiliyatlarining yetarli emasligidanmas balki nemis tilining qiyinligi haqida shikoyat qilishadi. Masalan: "Men nemis tilida gapira olmayman". "Nemis tilida juda ko'p qoidalar va istisnolar bor." Men buni qanday qilib to'g'ri aytishni bilmayman" va x.k. Ular ingliz tilini osonroq deb bilishadi.

Mazmunli va samarali o'qitish imkonini beruvchi ko'plab sinab ko'rilek va yangicha o'qitish usullari mavjud. Quyidagi umumiyoq ko'rinishlar motivasiyaning oshirib, o'rganishni osonlashtirish uchun mo'ljallangan.

Talabalarni faollashtirish uchun avvalo nemis tili muhitini yarata olishi, muloqotga yordam beruvchi vazifalarni ko'ndalang qo'yishi, savol-topishmoq shaklidagi vazifalarni berishi, uzlusiz jonli nutq-so'zlashuvni yo'lga qo'yishi ham chet tilini egallahda nutq o'stirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun avvalo xar bir o'quvchida motivatsiya uyg'otish kerak. Aynan motivatsiya maqsad faolligini oshiradi. "O'qish bu anglash, bilish demakdir. Bu borada o'quvchini anglashga majburlab bulmaydi, uni qiziqtirish kerak. Turli metodologik yirik shakllar turli didaktik ustuvorliklarni belgilaydi." [5. Riedl, A. 104-bet] O'qish

kompetensiyasini rivojlantirish uchun matnni o'qib tarjima qildirish yoki savollarga javob berishni talab qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki qiziqarli usullarni qo'llab, uni ham maroqli jarayonga aylantirish mumkin.

Ba'zida eng yaxshi tushuntirish xam yordam bermaydi. Keyin mavzuni tushunish uchun rasm va misollar kerak bo'ladi. Bularni ba'zan qisqacha videolarda topishi mumkin. Shunda talaba to'satdan mavzuni tez tushunib, uni eslay olishi xayron qoldirarli darajada bo'ladi. Videolardan so'ng bilimlarini to'g'ridan-to'g'ri - mashqlar bilan sinab ko'rish mumkin. Bunda til erkin tarzda, chet tilini ona tilida so'zlovchi tomonidan eshitib tushunishiga o'rgatiladi va zavqlanish orqali baholarini oshiradilar. Haqiqiy, hayotiy materiallar har doim sun'iy materiallarga qaraganda yaxshiroq ishlaydi. Hayotiy voqealar asosidagi video va matnlardan foydalanilsa, talabalarni idrok etishga, fikr-mulohaza bildirishga undalsa, ularni faollashtiradi. O'quv materiali qanchalik qiziqarli bo'lsa, u chet tili darsidagi o'z vazifasini shunchalik yaxshi bajaradi.

Rolli o'yinlarda guruhga tegishli mavzu taqdim etiladi. Ular muloqot, shuningdek, idrok, moslashuvchanlik, ochiqlik, hamkorlik mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish, nazariyani amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini, rivojlantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash joizki, ushbu amaliy takliflar tufayli o'qituvchi chet tilini o'qitishda o'quvchilarda motivatsiyasini oshirishga, ya'ni til o'rganishga bo'lgan tabiiy xohishni rivojlantirishga erishishlari mumkin. Til o'rganish majburiy yoki zo'riqib yodlash bilan emas balki kuchli xohish bilan o'rganilgandagina yaxshi natija beradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. DLL 2, 2.4.2. <https://www.klett-sprachen.de/dll-02-wie-lernt-man-die-fremdsprache-deutsch/t>

2. Motivierung. In: Krumm, Hans-Jürgen/ Fandrych, Christian/ Hufeisen, Britta/Riemer, Claudia (Hrsg.) (2010): Deutsch als Fremd- und Zweitsprache. Berlin, New York: De Gruyter, S. 1151-1156.
3. https://is.muni.cz/th/td43e/DP_Benesova_tisk.pdf
4. Dornyei, Z. (1994). Motivation and Motivating in the Foreign Language Classroom. *The Modern Language Journal*, 78, 273-284.
5. So lernen Kinder erfolgreich Deutsch. Hg. vom Goethe-Institut. Erich Schmidt Verlag. Berlin. 2016. S.32
6. Riedl, A.. Interaktive Lehr-Lern-Methoden: Fallstudie, Rollenspiel, Planspiel, Zukunftswerkstatt und Szenario Erschienen in: Larissa Korneeva (Hrsg.): Aktuelle Fragen des Fremdsprachenunterrichts, der interkulturellen Kommunikation und der Fachrichtung Übersetzung an der Hochschule. Sammlung von Beiträgen zur internationalenwissenschaftlich-praktischen Konferenz. Jekaterinburg: UrFU (Uraler Föderale Universität), S. 104